

МАХМУДХО‘JA БЕHBUDIYNING IJTIMOIY-SIYOSIY VA DAVLAT BOSHQARUVIGA OID QARASHLARI

Yodgorova Zebo Nurbek qizi,

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,

Yurisprudensiya (Islom huquqi) 2-bosqich talabasi

e-mail:zeboyodgorova77@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola o‘zbek ma’rifatparvari va jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy va davlat boshqaruviga oid qarashlarini tahlil qiladi. Behbudiyning ma’rifatparvarlik faoliyati bilan birga siyosiy islohotlar o‘tkazish, Turkistonni og‘ir siyosiy ahvoldan qutqarish yo‘lida qilgan mashaqqatlari, taraqqiyotga erishish uchun kadrlarni yetishtirish haqidagi fikrlari o‘rganiladi. Maqolada Behbudiyning jamiyatni isloh qilish, davlatni modernizatsiya qilish va milliy o‘zlikni anglashga qaratilgan g‘oyalari olib beriladi. Maqola adib merosining XXI asrdagi ahamiyatini baholaydi hamda uning taraqqiyotga oid g‘oyalari O‘zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida qanday qo‘llanilishi mumkinligini tadqiq qiladi.

Kalit so ‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudi, jadid, taraqqiyot, boshqaruv, siyosat, maorif, ma’rifatparvarlik

Abstract: This article analyzes the socio-political and state governance views of Mahmudkhoja Behbudi, a prominent figure in the Uzbek enlightenment and Jadid movement. The study examines Behbudi’s educational activities, his perspectives on political reforms, his efforts to rescue Turkestan from a difficult political situation, and his ideas on training personnel to achieve progress. The article reveals Behbudi’s concepts aimed at reforming society, modernizing the state, and fostering national self-awareness. It assesses the significance of the writer’s legacy in the 21st century and

explores how his ideas on development can be applied to achieve Uzbekistan's sustainable development goals.

Key words: Mahmudkhoja Behbudi, jaded, development, governance, policy, education, enlightenment

Аннотация: В данной статье анализируются общественно-политические взгляды и идеи о государственном управлении Махмудходжи Бехбуди, выдающегося представителя узбекского просветительства и джадидского движения. Рассматриваются не только просветительская деятельность Бехбуди, но и его усилия по проведению политических реформ, вызволению Туркестана из тяжелого политического положения, а также его мысли о подготовке кадров для достижения прогресса. В статье раскрываются идеи Бехбуди, направленные на реформирование общества, модернизацию государства и развитие национального самосознания. Оценивается значимость наследия писателя в XXI веке и исследуется, как его идеи о развитии могут быть применены для достижения целей устойчивого развития Узбекистана.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, джадид, развитие, управление, политика, образование, просветительство

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, Turkistonda mustamlakachilikka qarshi milliy-ozodlik harakatlarini bilan bir qatorda mahalliy aholining aksariyat qismi o'zlikni saqlab qolish, milliy madaniyatni asrash uchun kurashdilar. Vatan, millat, xalq qayg'usini tushungan kishilar, ayniqsa, ziyorolar xalqni ozodlikka eltuvchi yo'l bu – ma'rifatli qilish deb bildi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonda ma'rifatparvarlik harakati vujudga keldi va bu harakat jadidchilik deb nomlandi. Jadidchilik faoliyatining yuzaga kelishini B.Qosimov shunday yozadi: "Har bir hodisa singari uning (jadidchilikning) ham maydonga kelish shart-sharoiti, sabablari bor. O'z tarixi, taqdiri bor. U tasodifiy hodisa emas, muayyan sharoit mahsuli, ehtiyoj farzandi. U

bundan yuz yil ilgari mustamlaka Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bo‘lgan hayotiy ehtiyoji tufayli dunyoga keldi”. Mustamlaka zulmi ostidagi xalqni ma’rifatli qilish va ularning taraqqiyot darajasini ko‘tarishga ziyoli insonlar befarq bo‘lmadilar. Bu harakatni, jadidchilik nayomoyondalarining karvonboshisi, “O‘rta Osiyo jadidlarining otasi” nomini olgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning faoliyatiziz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

ASOSIY QISM

Jadidlar faqatgina maktab-maorif tizimini isloh qilish bilan cheklanmadı, balki ijtimoiy-siyosiy sohalarda ham o‘z amaliy harakat va g‘oyalarini ilgari surdilar. Akademik B.Nazaroving ushbu fikrlari buning yaqqol isbotidir: “Jadidchilik – davlat, tuzum, boshqaruvni isloh etish va millatni rivojlantirish orqali, umuman, jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo‘ygan g‘oyalar va aniq amaliy tadbirlarni o‘zida mujassamlashtirgan tizim ekani barchaga ayon. Shunday ekan, bu tizim jahon sivilizatsiyasida nihoyatda katta rol o‘ynagan Turkistondek ulkan tarixiy bir o‘lkada , ko‘p asrlar davom etib kelgan hayotning sharqona tarzini saqlagan holda, uni G‘arb va Ovro‘pa taraqqiyoti natijalari bilan boyitishni ko‘zlagan hamda XX asr tongidan yangicha yashamoqni vujudga keltirish usullarini izlaganini, istibdod sharoitida o‘z taqdirini o‘zi belgilash yo ‘lida kurashga kirishganini ko‘rsatuvchi sertarmoq va murakkab jarayonlarni o‘zida istifoda etadi”.¹ Hozirgi kunda dolzarb bo‘lgan inson huquqlari, xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash, ya’ni tashqi kuchlarning aralashmasligi, demokratik davlat boshqaruviga oid qarashlar bundan bir asr oldin ham jadidchilarning asosiy maqsadlari bo‘lgan degan xulosaga kelish mumkin.

Taraqqiyparvarlik harakatining rivojlanishi ikki bosqichda bo‘ldi. Birinchi bosqichda ma’rifatparvarlikdan boshlangan bu harakat 1917-yilga kelib o‘zining ikkinchi bosqichi – siyosiy ko‘rinishdagi harakatga aylandi. XX asrning boshlarida

¹ Nazarov B. Istiqlol samarası / “Jadidchilik”, 4-bet

shakllangan taraqqiyatparvarlik kuchlari davlatning boshqaruv tizimi zamon talablariga javob bermasligini, xalqning turmush darajasi past ekanligini va uni o‘zgartirish lozimligini chuqur angladilar. 1917-yilda jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashdilar, bundan tashqari, fevral voqealaridan keyin bir qator siyosiy talablarni ilgari surdilar. Bunday harakatlarda ham Behbudiyning xizmatlari kattaligini ko‘rishimiz mumkin. U bir qancha maqolalari orqali o‘z fikrini jamiyatga, rahbariyatga yetkazdi, bir qancha siyosat va davlat boshqaruvi sohasida takliflar ishlab chiqdi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifatparvarchiligi davr talablarining barchasiga javob berishga qodir edi. Chunki uning g‘oyalari jamiyatning ko‘p asrlik tarixiy tajribasi va zamonaviylik bilan uyg‘un holda edi. Uning ma’rifatparvarchilikka doir qarashlari mohiyatini “Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at” kitobida quyidagi uch qoidani ilgari surgan: 1) Zamon talablaridan kelib chiqib ish ko‘rish; 2) Millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlar yetishtirish; 3) Milliy biqiqlikdan chiqib, dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy munosabatlar va muloqotlarda jahon andozalarini darajasida ish yuritadigan millatga aylanish.²

Haqiqatdan ham dunyo hamjamiyatiga qo‘shilib, xalqaro miqyosda ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan tizimlarni joriy etish bugungi kunni ham talabidir. Behbudiy zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o‘zlashirmaslik, ilg‘or texnologilarga asoslangan bilim, kasblarni bilmaslikni ayanchli ahvol sifatida tasvirlaydi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy jasoratini Sadriddin Ayniyning quyidagi so‘zлari orqali bilim olishimiz mumkin: “siyosiy ishlarga ishladi, xalqqa siyosiy fikr berdi, xalqning iqtisodiy-ijtmoiy ahvolini isloq qilmoq uchun iqtisodiy va ijtmoyi olim bo‘lib xalqqa fikr tarqatdi”.³ Mutafakkir millat ravnaqi bo‘lishi uchun , uning ongi o‘sishini ta’minlashda faol harakat qildi. Uning “Matlabim arzi hunar va izhori fazl emas, ahli Vatang‘a qo‘lumdan kelguncha bir xizmatdur” yozgan fikrlari millatning fidoyi farzandi ekanligidan dalolatdir. Behbudiy mahalliy xalq manfaatlarini himoya qiladigan millat

² Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. 24-bet

³ Ayniy S. Muftiy Mahmudxo‘ja hazratlari kim edi? / Saidov X. Ma’rifat libosidagi ozodlik.133-bet

xodimi, ya’ni davlat dumasida xalq tomonidan saylangan deputat yo‘qligini bildirib, qayg‘uradi. Buning sababi xalq vakil qilgan kishilar til bilmasliklari, mustamlaka davlatning qonun-qoidalarini o‘rganilmaganligini keltirib o‘tadi. Adibning “Ehtiyoji millat” maqolasida keltirilishicha, bir necha yillar oldin turkistonliklarning boshqa davlatlar bilan munosabatlari rivojlanmaganligi sababli faqat shariat qoidalari bilan cheklanib qolib, boshqa rivojlangan davlatlarda mavjud bo‘lgan qonun va Yevropa huquqi odatidan bexabar edi. Endi esa ularni bilish lozimligini ta’kidlab o‘tadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy tafakkuri yuqoriligini “Muntaxabi jo‘g‘rofiya umumiy” qo‘llanmasining “Hukumat va hukmronlar” faslida ko‘rish mumkin. Behbudiy o‘sha zamonda tarkib topgan oliy hokimiyat turlari yoki idora usullarini uchga bo‘ladi. Bular: 1. Idorai mustaqla (monarxiya); 2. Idorai mashruta (konstitutsiyali parlament); 3. Idorai jumhuriyat (respublika)⁴

Monarxiyani muallif “podshoh sohibi ixtiyor” deb ataydi va bu to‘g‘risida fikr bildirmaydi, negaki bu boshqaruv shaklida butun bir xalq podshohning xohish-irodasiga qaram bo‘ladi va bu qoida muallifning dunyoqarashiga mos emas. Ikkinchisi usuldagagi idorai mashruta usulini esa ilmli, hunar va dunyo ishlaridan xabardor fuqarolar orasidan tanlangan vakillar mamlakat ishlarini boshqarishda faoliyat olib boradi.

Behbudiyning, umuman, jadidlarning faoliyati o‘zga millat vakillari tomonidan ham e’tirof etilganligini ko‘rishimiz mumkin. “Turkiston o‘lkasidagi eng e’tiborli va kelajagi porloq siyosiy kuch, sotsial-demokratlar, bolsheviklar va mensheviklar yoki sotsial inqilobchilar yo‘kadet va liberallar emas, balki o‘zbek jadidlaridir” – deb yozadi fransuz mayori Lyakosta.⁵

Mahmudxo‘ja Behbudiyning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ma’rifatparvarlik va ilmiy taraqqiyot orqali davlat boshqaruvini isloh qilish;

⁴ J. Yaxshilikov, N.Ubaydullayeva . Jadidchilik va Behbudiy,2004. 124-bet

⁵ Karimov N. XX asr boshlaridagi tarixiy vaziyat va jadidchilik harakatining vujudga kelishi / “Jadidchilik”, 33-bet

2. Konstitutsion boshqaruv tamoyillarini joriy etish;
3. Adolatli davlat qurish uchun sud-huquq tizimini rivojlantirish;
4. Milliy uyg‘onish ‘oyasi orqali xalqni siyosiy jihatdan faollashtirish.

XULOSA

Mutafakkirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari nafaqat o‘sha davr uchun, balki ular bugungi demokratik tamoyillarga hamohang ekanligini ko‘rish mumkin. Uning ma’rifat va taraqqiyot orqali jamiyatni rivojlantirishga bo‘lgan ishonchi hozirgi kunning ham dolzarb masalalaridan biridir. Behbudiy fikricha, taraqqiyot uchun asosiy omillar – ta’limning rivoji, huquqiy madaniyatning shakllanishi va islohotlarning izchilligi bo‘lib, bu tamoyillar zamonaviy jamiyat qurilishida ham muhimdir. Uning g‘oyalari milliy uyg‘onish, adolatli boshqaruv va mustaqil tafakkurning shakllanshiga zamin yaratdi. Bugungi kunda Behbudiy qarashlari nafaqat tarixiy meros, balki ijtimoiy va siyosiy rivojlanish uchun muhim yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. J.Yaxshilikov, N.Ubaydullayeva. Jadidchilik va Behbudiy, 2004
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar I jild. Toshkent. Akademnashr - 2018
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar II jild. Toshkent. Akademnashr - 2018